

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.K.Boyqo'zieva</b>	
Milliy madaniy merosimizni o'rganishda talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy jarayonlari .....	230
<b>N.V.Nosirov</b>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini metodik kompetentligini axborotlashgan ta'lim muhitida takomillashtirish .....	234
<b>G.Z.Ganiyeva</b>	
Ingliz tilidagi toponimlarni izohlashda leksikografik tamoyillar (buyuk britaniya va amerika joy nomlari lug'atlari misolida) .....	238
<b>Z.K.Abidova</b>	
Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini tashkil etishda loyiha metodidan foydalanish .....	244
<b>R.I.Madaliyev</b>	
Talaba-yoshlarda harbiy vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirish texnologiyasi .....	248
<b>M.X.Baybaeva, I.A.Imomov</b>	
Talabalarning xulq atvoridagi nizoli vaziyatlarni pedagogik tashxis etishning sinergetik-tuzilmasining talqini .....	252
<b>I.A.Imomov</b>	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lim jarayonida talabalarda yuzaga keladigan nizolarning pedagogik tahlili .....	256
<b>L.M.Sokolova</b>	
Farg'ona vodiysi hunarmandlari postindustrial dunyoda .....	261
<b>S.O'Boybo'riyeva</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq odobini shakllantirish muammolari .....	268
<b>Sh.X.Xankeldiyev, D.K.Karimov</b>	
Yosh akrobatlarning xarakter-texnik tayyorgarligi metodologiyasining kumulyativ samaradorligini o'rganish .....	272
	<u>IQTISODIYOT</u>
<b>X.X.Bozarov</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning xususiyatlari .....	277
	<u>FALSAFA</u>
<b>Z.A.Boboyeva</b>	
San'atning badiiy adabiyot turi uzluksiz ma'naviy tarbiyaning muhim omili .....	283
<b>I.A.Xo'jaxonov</b>	
Huquqiy targ'ibot jarayonida ommaviy axborot vositalarining o'rni .....	288
<b>U.M.Mamajonov</b>	
Musiqqa madaniyati darslarida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatini rivojlantirishning muhim shartlari .....	293
<b>M.B.Yuldasheva</b>	
Biolog talabalarni kasbga yo'naltirilgan yondashuv orqali til o'qitish bo'yicha taklif .....	298
<b>B.M.Qandov</b>	
Global ekologik muammolar: shaxs dunyoqarashi va milliy qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar .....	302
<b>O.T.Berkinov</b>	
Kibermakonda mavjud o'ziga xos tahdidlar .....	308
<b>I.Ismoilov</b>	
Jinoyatga jazo tayinlashga oid ayrim xorijiy davlatlar tajribasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari .....	311
<b>A.A.Sayitxonov</b>	
Milliy qadriyatlar– ma'naviy tarbiyaning mafkuraviy asosi .....	316
<b>Z.O.Muminova</b>	
Tafakkur tarzi va jamiyat mafkuraviy tizimining ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri .....	320
<b>A.A.Isomiddinov</b>	
Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning ijtimoiy-madaniy omillari .....	324

**SAN'ATNING BADIY ADABIYOT TURI UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYANING MUHIM OMILI**

**ВИД ИСКУССТВА И ЛИТЕРАТУРЫ – ВАЖНЫЙ ФАКТОР НЕПРЕРЫВНОГО ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ**

**THE TYPE OF ART AND LITERATURE IS AN IMPORTANT FACTOR OF CONTINUOUS SPIRITUAL EDUCATION**

**Boboyeva Zulfiya Akbarjonovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>**Boboyeva Zulfiya Akbarjonovna**

– Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

**Annotsiya**

*Ushbu maqolada san'atning badiiy adabiyot turi uzluksiz ma'naviy tarbiyaning muhim omili, san'at va ahloqning bosh mavzui inson ekanligi, san'at insonning maqsad-manfaatlari, fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari nuqtayi nazaridan aks ettirsa, axloq inson ijtimoiy aloqalari va munosabatlarining mag'ziga singib ketadi hamda hayotda, mayyan jamiyatda ahloq-odob zarur ekanligi yoritib berilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье методы формирования духовно-нравственной культуры молодежи в новом Узбекистане, главная тема искусства и этики - человек, если искусство отражает цели и интересы человека, мнения, чувства, внутренние переживания, Нравственность заложена в сердцевине человеческих общественных отношений и взаимоотношений, и разъяснено, что нравственность необходима в жизни и обществе.*

**Abstract**

*In this article, the methods of forming the spiritual and moral culture of young people in the new Uzbekistan, the main subject of art and ethics is man, if art reflects the goals and interests of a person, opinions, feelings, inner experiences, Morality is embedded in the core of human social relations and relationships, and it is explained that morality is necessary in life and society.*

**Kalit so'zlar:** Axloq va san'at, axloqiy ideal, axloq falsafasi, axloqiy tarbiya, amaliy ko'nikmalar, axloqsiz yondoshuv, individual sifatlar, iqtisodiy taraqqiyot, ta'lim standartlari, ilmiy-metodik, sub'yektiv yangilik.

**Ключевые слова:** навыки педагогов, воспитание и развитие, воспитание и обучение, практические навыки, непрерывное образование, индивидуальные качества, экономическое развитие, образовательные стандарты, воспитание и обучение, научно-методические, субъектные инновации.

**Key words:** sports, folk traditional values, intercultural relations, practical skills, continuous education, individual qualities, economic development, educational standards, education and training, scientific-methodical, subjective innovation in students.

**KIRISH**

IX asrda yashagan arab filologi Ibn al-Mu'tazz suyangan fikrga qaraganda, arabcha badaa masdari (fe'li), «yangilik» degan ma'noni bildiradi.[1] Badiylik iborasi esa go'zallik, ohorlilik, nafislik demakdir. Shu sababli «badiylik» atamasi adabiyotning eng nozik jihati bilan aloqador, shunga e'tiborimizni tortadi, chunki asarda yangilik bo'lmasa, uning o'rniga takror, qaytariq bo'lsa, bunday asar adabiyotga noqarardir. Har bir asar taqdirini ritorika emas, balki yangilik, nafasat hal qiladi, shuning uchun yaxshi badiiy asar millat va jahon adabiyoti tarixiga kiradi. Yangilik esa asarning mazmun tomoniga ham, shakl tomoniga ham tegishlidir. Yangi narsa esa ohorlidir, diqqatni tez tortadi va jozibali ham maftunkordir, chunki u hayot va ruhiy ham ma'naviy ehtiyoj tufayli kelib chiqadi, kishilar talabini qondiradi. Ma'lumki, adabiyot go'zallik qonunlari to'g'risida bahs yuritadi va shu o'zanda rivoj topadi, go'zallik ichki va tashqi bo'ladi, ikkalasi uyg'un holda yashaydi, inson unga intiladi. Bu hol badiylik bilan aloqador ekanligi tabiiy hodisa, chunki badiylik, yangilik ma'nodan, shakldan, go'zallikdan tashqarida yashay olmaydi.

«Badiylik» tushunchasi buyuk fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiy asarlarida ham uchraydi. U Salmon Sovajiy haqida shunday deydi: «Uning ikki masnaviy kitobi bor, biri «Jamshidu Xurshid» bo'lib, uning uslubi sertasallulfigidan badiyat chegarasidan chiqib ketgan. Ikkinchisi «Firoqnoma» deb ataladigani badiyatda yuksak va nazmiyotda latif».[2] «Badiylik» atamasi Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ushshuaro» asarida Alisher Navoiyning «Agar xonada kishi bo'lsa, sharpaning o'zi kifoya» degan misrasiga nisbatan ishlatilgan.[3]

«Xudojnik» so'zi – umeles, ya'ni «mohir» degan ma'noni bildiradi, «xudojestvennost», ya'ni badiiylik shu so'zdan yuzaga kelgan.[4]

«Badiiylik» atamasi Yevropada dastlab Gegelda duch keladi, Rossiyada XIX asrda paydo bo'ldi. 20-30 yillarda Abdurahmon Sa'diy, Fitrat asarlarida, o'quv qo'llanmalarida «badiiylik» atamasi o'rnida «nafis», «nafislik», «nafis adabiyot» atamaları kelib chiqdi (nafis, ko'pligi nafoyis, nozik, bejirim, ko'rkam demakdir). «Badiiylik» atamasi sinkretik san'atga, tarixiy mavzudagi memuarga va muallifi bo'lmagan (ya'ni yozma adabiyotga taallug'i yo'q) asarlarga nisbatan o'z to'la ma'nosida tatbiq etilmaydi. Rus matbaasidagi bu qarash e'tiborga loyiq.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotdagi badiiylik to'g'risida bahs yurityapmiz. San'atning turli ko'rinishlarida ham badiiylik mavjud. San'at turlaridan bo'lgan adabiyotdagina emas, balki kino, teatr, muzika, haykaltaroshlik, televideniye va me'morchilikda xam badiiylik bor: badiiylik bu san'at turlarida, ularning o'ziga xosliklari asosida alohida yuzaga keladi. Masalan, adabiyot so'zga, rassomlik bo'yoqqa, musiqa tovushga suyanadi, lekin umumiy xususiyatlar ham bor, ayni holda, aniq belgilar ham yo'q emas. Umumiylik hamma san'at turlarining obraz bilan ish ko'rishidir. Shu tahlillardan xulosa qilib aytish ham mumkinki, «badiiylik – san'at sohasiga oid bo'lgan ijodiy mehnat samarasini belgilovchi ichki (tuzilishga oid) xususiyatlarning murakkab yig'indisidir».[5]

F.M.Dostoyevskiyning aytishicha, «...badiiylik, masalan, aqalli romannavisni olsak, o'z fikrini romandagi shaxslar va obrazlarda shuncha aniq ifoda etish iste'dodidirki, kitobxon romanni o'qib, yozuvchi o'z asarini yaratib, o'z fikrini qanday tushungan bo'lsa, xuddi shunday tushunadi».[6]

Ahamiyat bering, Gegel adabiyotda mahorat, uning ta'sir etishini, Dostoyevskiy iste'dod masalalarini alohida ta'kidlamoqda. Demak, badiiylik tushunchasi doirasiga san'atning muayyan sohasi, uning ichki tuzilishi va undagi murakkablik, san'at asarida yozuvchi o'z oldiga qo'ygan maqsad, uning aniq ifodalanishi, yozuvchi niyatining amalga oshganligi va asarning qiyomiga yetkazib ishlanganligi kiradi, ammo hali badiiylikka adabiy jarayon va uning estetik ideali ta'siri, har bir badiiylikning shu sohadagi muayyan daraja ekanligi aytilgani yo'q. Yuqorida keltirilgan umumiy va qo'llanib kelayotgan ma'noda deyilgan ta'riflar to'la emasligi ayon bo'lib turibdi.

Badiiylikni hosil etish maqsadi hayotni orzu etilgan darajada qurish va yaxshilashga xizmat qiladi. Badiiylik badiiylik uchun yashamaydi, balki hayotning murakkab masalalarini hal etish, inson ongi va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish va ularni ezgulik, ro'shnolik, taraqqiyparvarlik va shu bilan birga go'zallik va zarurat qonunlari asosida o'zgartirish uchun da'vat qilingan.

Badiiy obrazlar, qahramonlarning kishilar xulqiga ta'siri tom ma'noda ulkan va beqiyosdir. Aynan mana shuni nazarda tutib yozuvchimiz A. Qahhor "Adabiyot atomdan kuchli..."—degan edi. Haqiqatan ham shunday. Agar san'at asarlari fahsh, zo'rlik, g'ayriinsoniylik, adovat, nafrat tuyg'ularining o'sishiga xizmat qilsa, o'zidan so'ng singan inson taqdirlarini, buzilgan avlod va ma'naviy bo'shliqni qoldiradi. Bu har qanday atom bombasi portlashi natijalaridan ham xavfliroq va fojealirokdir. San'at asarlari ezgu g'oyalar, mehr-muhabbat tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan bo'lsa, do'stlik va qardoshlikni tarannum etsa, ma'naviy yuksalish uchun xizmat qiladi, hushyorlikka, faollikka chorlaydi.[7]

San'at ijtimoiy hayotning mustaqil sohasi bo'lishi bilan birga inson faoliyatining badiiy bo'lmagan sohalar bilan ham chambarchas bog'liq. San'at turlari xususiy-badiiy burch-vazifalari bilan birga foydali-amaliy burch-vazifalarni ham bajaradi. Bu jihatdan san'at turlarining foydali-amaliy burch-vazifalarini ikki burchli, bir burchli, tadbqiqiy va «toza» burch-vazifa ko'rinishlariga bo'lish mumkin. Me'morchilik, amaliy san'at, xalq hunarmandchiligi, tadbqiqiy burch ko'rinishiga ega. Bu san'at turlarida badiiylik foydali-amaliy idrok bilan uzviy birlikda namoyon bo'ladi. Masalan, harbiy musiqa davlat madhiyasi yoki adabiyot, tasviriy san'at sohalarining (bayroq, tamg'a) axborot-hujjat tomonlari shunday xususiyatga egadir.

Hozirgi davr badiiy madaniyatida san'at va boshqa sohalar o'rtasidagi chegaralar tobora yemirilib bormoqda va ular o'rtasida samarali hamkorlik jarayonlari shakllanmoqda. Ayniqsa, bu hamkorlik san'at va fan-texnika aloqalarida yaqqol ko'rinadi. Og'zaki adabiyotda so'z bilan ijrochi mushtarakdir. Bir vaqtning o'zida muallif bilan ijrochi (dostonchilar, baxshilar, askiyachilar) birlashib ketadi. Binobarin so'zda ifodalangan asar (askiya, doston, terma) ijro va idrok uchun yaratilgan bo'ladi. Yozma adabiyot esa ijro talab qilmaydi. U eshituvchiga emas, o'quvchiga mo'ljallangan bo'ladi. Og'zaki va yozma adabiyot o'rtasidagi farq ularning inson tuyg'ulariga turlicha ta'sir o'tkazishida namoyon bo'ladi. Aytilgan so'zni eshitish, yozilganini ko'rish va o'qish uchun mo'ljallanganligidan tashqari, yozma adabiyotni idrok etish o'quvchidan ko'proq ijodiy faollikni va mustaqillikni, adabiy

## FALSAFA

matndan olingan axborotni o'zining ma'naviy dunyosi va hayotiy tajribasi bilan qiyoslashni talab qiladi.

Badiiy adabiyotning epik turida voqelik keng va ko'p tomonli holda qamrab olinadi, inson xulq-atvorini shakllantiradigan va uni harakat qilishga undaydigan shart-sharoitlar bilan uzviy bog'liq tarzda bayon qilinadi. Unda tashqi olam qonuni hukmronlik qiladi, tasvirlanayotgan voqelikka, narsalarga muallif munosabati, odatda, bayon qilish uslubi asar tartibi ichiga yashiringan bo'ladi. Epik asar hamma vaqt erkin yozma bayon (insho) usulida ifodalanadi, unda ko'proq tasvirlash ustunlik qiladi. Epik asar mazmuni tasviriy qismlar, qahramonlarning fikr-mulohazalari va kechinmalari tasviri orqali namoyon bo'ladi.

Epik adabiyotda voqelik tasvirining kengligi, mufassalligi, hayot manzaralarini yaxlit yaratishga intilish, voqealar tasvirini bayon qilish tarzi bu turning ba'zi shakliy belgilarini ham izohlaydi. Tasvirning bayon tarzi, uning batafsilligi qismlarining nisbiy mustaqilligi, harakat sodir bo'lishining sekin-astaligi, asar badiiy tizimining erkin tarkib topishi, harakatning tugal emasligi kabi belgilar shular jumlasidandir. Epik asarlar o'z mazmuni va shakliy belgilari jihatidan nasriy ifodaga moyil bo'lib, unda to'la va jozibali bo'y ko'rsatadi. Epik adabiyot ko'proq nasriy bayonga mo'ljallangan holda, lirik adabiyot asosan nazm orqali bayon etiladi. Agar epik asarlarda voqelikning keng manzarasi-tashqi olam ruhi hukmron bo'lsa, lirik adabiyotda ko'proq inson ichki holati ifodalanadi. Arastu ta'kidlaganidek, lirik adabiyot muallifi o'zi yaratgan asari bilan yaxlit birlikni tashkil qiladi va bunda o'zligini ham saqlab qoladi. Ba'zan lirikada tasvir tomonlar zaif holda aks etib, ko'proq muallif fikr va tuyg'ulari ifodalanadi. Bu uning voqelikni aks ettirishning muhim shakli bo'lib qolishiga halal bermaydi. Lirik adabiyotda tashqi dunyo bevosita emas, bilvosita, ya'ni fikr va tuyg'ular orqali aks ettiriladi. Shoiring shaxsiy fikr va tuyg'ulari o'zi yashab turgan davrning ilg'or fikr va tuyg'ulariga hamohang tarzda umumxalq, umuminsoniy ahamiyat kasb etadi. Bunga Yassaviy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Mahtumquli, Muqimiy, Furqat, Cho'lpon, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov lirikasi yorqin misol bo'ladi. Lirikada fikr bilan tuyg'u chirmashib, tutashib ketadi. Unda sezgi bilan bezangan, his-tuyg'ular bilan to'lib toshgan fikr bevosita kechinmalar shaklida namoyon bo'ladi. Lirika olam va inson haqida eng murakkab, eng teran fikrlarni ifodalash qudratiga ega. Lirika bevosita tasvir uslubidan foydalanmasligi jihatidan musiqa va raqsga yaqin bo'lsada, o'zining so'z bilan qat'iy birligi tufayli u inson ma'naviy hayotining hamma qirralarini ifodalash imkoniyatiga egadir. Badiiy adabiyotning ko'pgina asarlari bir vaqtning o'zida hamepik, ham lirik tur belgilariga ega bo'ladi. Masalan, o'zbek adabiyotida Cho'lpon va Usmon Nosir, Abdulla Oripov va Erkin Vohidov lirikasida badiiy uslub xilma-xilligidan qat'iy nazar, ular ijodida lirik va epik tomonlar qorishmasimavjudligini ko'ramiz. ularning ham lirik, ham epik asarlar yaratishga moyilliklari mantiqiy tarzda bu shoirlar ijodida dramaturgik turni paydo qildi.

## NATIJARLAR

Badiiy adabiyotning dramaturgiya turi, avvalo, sahnalashtirishga mo'ljallangan asarlar bo'lib, uni ham adabiyot turi, ham teatr qismi deb ataydilar. Bu tur hayotning dramatik lahzalari va tomonlarini yanada to'laroq aks ettirish talab-eh'tiyollaridan kelib chiqqan bo'lib, har qanday dramatik asar asosini ziddiyat (konflikt) tashkil qiladi. Drama asarlarida kundalik hayotning tub o'zgarishlarga moyilligidan dalolat beruvchi tomonlarini to'laqonli ochib berishda mavzu asosiy o'rin egallaydi.

Dramatik asarlarda o'z oldilariga aniq-ravshan maqsad va vazifalar qo'ygan irodali kishilar yuzma-yuz kelib to'qnashadilar. To'qnashuv qudrati esa ko'p jihatdan iroda namoyon bo'lishi va uning ifoda kuchiga bog'liq bo'ladi. Dramatik to'qnashuv xususiyati o'z navbatida dramatik harakat xususiyatini belgilab beradi. Dramatik harakatda esa inson ruhiy tahlili, uning fikr-tuyg'usi, insoniy sifatleri namoyon bo'ladi. Dramatik asarlarda hayot uyg'unligi to'la namoyon bo'lar ekan, dramatik harakat mumkin qadar faollikka, bir maqsadga yo'nalganlikka, tamoshabinga bevosita ta'sir o'tkazishga intiladi. Bu esa suhbat (dialog) orqali amalga oshadi. Suhbat jarayonida har bir so'z, voqea-hodisa, har bir hatti-harakat, ibora boshqa odam (suhbatdosh) ga faol tasir o'tkazish sifatida o'rin egallaydi. Badiiy adabiyotning turlari o'z navbatida bir necha xil va ko'rinishlarga bo'linadi. Ular epik turda xalq eposi; epik doston, roman-epopeya, roman, qissa; lirik turda-qasida, tuyuq, ruboiy, g'azal, mustahzod, she'r; dramatik turda-fojea (tragediya), komediya, drama kabilardir. Ularning har birini janr deb atash ham qabul qilingan bo'lib, mazmun umumiyligi, hayotiy hodisalar tanlovi, g'oyaviy-estetik baholanganligi, his-tuyg'uli ta'sir kuchi bilan izohlanadi. Har bir janr o'ziga xos belgilari, badiiy vositalar majmuining nisbiy qaror topganligi bilan bir-biridan farq qiladi. Badiiy adabiyot san'atning barcha turlariga ta'sir o'tkazib keldi va hozir ham o'tkazmoqda. Badiiy adabiyot

ta'siridan holi bo'lgan badiiy ijod sohasi yo'q bo'lib, unda ilk bor qalamga olingan mavzu, g'oya, ohang, qiyofa, xulq-atvor keyinroq san'atning boshqa turlariga ham ko'chishi mumkin. San'atning teatr va kino kabi qorishma turlariga ham badiiy adabiyot ilk asos vazifasini bajaradi. Nihoyat, san'at taraqqiyotining hozirgi bosqichiga xos bo'lgan badiiy qorishma vujudga kelishida ham adabiyot asosiy uyg'unlashtiruvchi va jamlovchi omillardan biri bo'lib hizmat qilmoqda.[8]

Falsafa va adabiyot bir-biri bilan chambarchas bog'liq, ular voqelikni o'ziga xos idrok etish, borliqni qadriyatli tushunish, voqelikni sub'yektiv idrok etish, muallif pozitsiyasini ifodalash bilan fandan farqlanadi. Falsafa va adabiyot bir-biriga juda yaqin, ammo bir xil emas; adabiyot boshqa san'at turlari singari badiiy obrazlar tilida, falsafa esa tushunchalar tilida so'zlaydi. Ammo, faylasuflar adabiy shakldan foydalanishgani xususida Tomas Morning "Utopiya", Aflotun "Dialog", Jan Jak Russoning " Emil yoki ta'lim to'g'risida" kabi ko'plab misollar keltirish mumkin. Ba'zi yozuvchilar tomonidan yozilgan asarlarda adabiyot va falsafaning chinakam birlashib ketgani, unda narsalarning mohiyati badiiy vositalar orqali talqin etilishini kuzatish mumkin. Zero, yuksak adabiyot hamisha falsafidir, u ba'zan falsafaning ratsionallashgan shakllaridan chuqurroq va yorqinroq bo'lishi, ko'plab savol tug'dirishi, muammoni keskinlashtirishi, uning yangi qirralarini ko'rsatishi mumkin.

Qadimgi antik davrning donishmandlari ham didaktik adabiyot orqali qadimiy falsafani kosmos, dunyo, inson, baxt va adolat, haqiqat, yaxshilik va go'zallik haqida mulohaza yuritishga yo'naltirdilar. Gomerning "Iliada" va "Odisseyasi" qadimgi yunonlarning falsafasidan ilhomlangan. "Mifdan logosa" ga ya'ni antik falsafa didaktik adabiyot va badiiy ijod orqali kirib kelgan. Muqaddas kitob, muqaddas yozuvlarda ham falsafa va badiiy timsolni birlashib ketganini ko'rish mumkin. Qur'onda Yusuf surasi eng go'zal qissa sifatida ta'riflanadi. Bu falsafa va adabiyotning qadimdan uzviy bog'liqligi, bir biridan ta'sirlashuvi va biri-birini boyitishini namoyon etadi. Yoki sivilizatsiya tarixida Tit Lukretsiy Kar, Dante, Shekspir, Servantes, Gyote kabi shoir va yozuvchi faylasuflar, aka-uka Shlegel, Novalis va boshqa nemis romantiklari "she'riyatni falsafa bilan birlashtirish, aralashtirishni" haqida o'z estetik qarashlarida bayon etishgan.

Tarixiy va falsafiy jarayonda san'atning o'rni va roli muammosi romantizm davridan boshlab Yevropa madaniyatining insonparvarlik, inson falsafasi, hayot falsafasi, inson mavjudligi, o'z-o'zini anglashi, o'zida sodir bo'layotgan muhim o'zgarish va evrilishlar tahliliga e'tibor qaratgan ekzistensializmga turlicha namoyon bo'lgan. Umuman olganda, g'arb va sharq falsafasi doimiy san'at, jumladan adabiyotga murojaat qiladi. Kant san'atni aqlning noyob kuchi va inson yaxlitligining noyob modeli asosi sifatida qo'ygan bo'lsa,[9] Gegel "barcha g'oyalarni qamrab oluvchi, aqlning oliy harakati - estetik harakatdir" va "ruh falsafasi estetik falsafa" degan fikrlari yangi Yevropa ratsionalizmi inqiroziga reaksiya sifatida –romantik panestetizmni vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

XIX -asrda yozuvchi, shoirlar badiiy adabiyot va falsafani biri-biriga yaqinlashtirdi. XIX asr oxiri-XX asr boshlariga kelib falsafa va adabiyot "birlashdi" deyish mumkin. Jahon adiblari jahon adabiyoti va falsafasiga katta ta'sir ko'rsatgan badiiy obrazlarda chuqur g'oyalar, mulohazalar va tajribalarni mujassam etishga muvaffaq bo'lishdi. Ular o'z asarlarida umumiy falsafiy muammolarga to'xtalib, falsafiy tahlilning abadiy mavzusi bo'lgan inson tabiatining tubsizliklarini ochib beradi. Masalan, Dostoyevskiy Kant kabi erkinlikni shaxsning axloqiy pokligi sifatida talqin etdi. "Jinoyat va jazo", "Telba" asarlarida inson sir-sinoati, ruhiyati, go'zallik jumbog'i, tarixning ma'nosi, hayotning diniy va axloqiy ibtidosi kabi muhim muammolarni badiiy vositalar orqali tasvirlaydi. Dostoyevskiy o'zining asarlarida hayotning oliy ma'nosi faqat Xudoda, qalbdan Xudoning borligida, faqat shu orqali to'g'ri hayot kechirish mumkinligini ta'kidlaydi. "Telba", "Iblislar", romanlarida inson qalbini o'rganishni va unda yaxshilik va yomonlikni izlashni davom ettiradi. Yozuvchi insonda destruktiv ibtidoning kelib chiqishini "metafizik yetimlik" - xudosizlik fenomenidan kelib chiqishini va oqibat qotillik, o'z o'zini yo'q qilish va zo'ravonlik, anarxiyaga bo'lgan ijtimoiy ehtirosni keltirib chiqarishini e'tirof etadi.

### MUHOKAMA

XX asrda adabiy asar badiiylikka yo'g'rilgan bo'lsada, unda falsafiy asosga e'tibor berila boshlandi. Neki har bir yozuvchi davrning falsafiy muhitidan nafas oladi va bundan ko'z yumib bo'lmaydi. Bu davrda olamning falsafiy mohiyatini teran his qiladigan Tolstoy, Dostoyevskiy, Kafka, Prust, Djoys, Borxes, Kortasar, Merdok, U.Eko, K.Uilson kabilarni asarlariga qiziqish ortganligini kuzatish mumkin. Ko'plab tarjimalar yuzaga keldi, lekin ushbu yozuvchilarning asarlari falsafiy tahlilga muhtoj, adabiyot falsafasiga oid tadqiqotlar kam. Adabiyotshunos olimlar tomonidan

## FALSAFA

ularning badiiy-falsafiy mazmuni, badiiy-uslubiy mahoratiga oid maqolalar e'lon qilingan. Lekin ushbu asarlarining germenevtik ontologik, epistemologik, aksiologik, axloqiy jihatlarini kam o'rganilgan. Nafaqat xorij balki mumtoz adabiyotimiz, zamonaviy o'zbek yozuvchi va shoirlar asarlarini falsafiy tahliliga e'tibor qaratish lozim. Bu falsafani ham adabiyotni ham boyishiga xizmat qiladi.

Falsafa va adabiyot olamni o'ziga xos tarzda o'zlashtiradi va aks ettiradi. Falsafa dunyoqarash sifatida adabiyotga ta'sir ko'rsatdi, shuningdek falsafa ham adabiyotning ta'sirini boshdan kechiradi. Falsafiy matn-bu dialogga asoslanadi, dialog esa haqiqatni adabiy va she'riy ifodalaydigan og'zaki nutq ko'rinishidir. Falsafa va san'atning o'rtasidagi aloqa lingvistik shakllari orqaligina amalga oshishi mumkin emas. Ko'pincha ular haqiqatni yetarlicha ifoda eta olmaydilar, shuning uchun ularni badiiy tafakkur, badiiy g'oya, badiiy-falsafiy majoz va ramzlar, metafora, metonimiya kabi hodisalar orqali talqin etiladi. Ayniqsa, san'at va falsafa tutashgan marginal janrlar (falsafiy esselar, ijtimoiy fantastika va boshqalar) kengayib borayotganini kuzatish mumkin. Bu esa adabiyot falsafasidagi integratsiyani namoyon etadi. Adabiyot falsafasi bu adabiyot hodisasining ontologik, epistemologik, aksiologik, axloqiy xususiyatlarini o'rganadigan soha. Falsafiy yondashuvlar esa adabiy tanqid va adabiyoni talqin qilishni uslubiy jihatdan kengaytiradi, filologik nuqtai nazardan ularning maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilashga xizmat qiladi. "Shu ma'noda, adabiyot va falsafa insoniyat tarixi va tadrijining umumiy hosilasi, falsafiy va badiiy tafakkurning uyg'unlikda namoyon bo'ladigan yaxlit natijasi, birining mavjudligi ikkinchisining zarurligini albatta taqazo etadigan, o'zaro chambarchas bog'liq fenomenal hodisalardir. Bu esa, badiiy tafakkurni falsafa, falsafiy g'oya va qarashlardan ayriqcha qarash, uzviy aloqador bo'lgan bu hodisalarni bir biridan ajratishning nihoyatda xato ekanligi va salbiy natijalarga olib kelishi mumkinligidan dalolat beradi".[10]

## XULOSA

Xulosa qilganda, adabiyot falsafasi fikr va tuyg'u mushtarak, badiiy matnlarda falsafiy muammolarni to'g'ri topishga urinishlar sohada yangi yondashuvlar, taklif va mulohazalarni ishlab chiqishga yordam beradi;

Ikkinchidan, badiiy tafakkur ham jamiyatdagi ijtimoiy voqelik, insoniy munosabatlarning ongda ifodasi bo'lib falsafa va adabiyot aloqadorligining ham muayyan ifodasidir;

Uchinchidan, adabiyot falsafasining integral xususiyati adabiyot va falsafa deb atalgan ikki sohaning o'zaro uzviy aloqadorligidan va umuminsoniylik xususiyatidan kelib chiqadi, ularning butun bashariyatga tegishli umumiy qadriyat ekanligiga tayanadi;

To'rtinchidan, adabiyot falsafasi o'z mavzularida (birinchisi ob'yektiv tuzilmalar bilan, ikkinchisi sub'yektivlik bilan bog'liqligi), usullarda (birinchi holda oqilona; tasavvur, ilhom va ikkinchisida ongsizsizlik bilan bog'liqligi), natijalarda (birinchisi bilim yaratadi, ikkinchisi –emotsional ta'sir) falsafani adabiyotdan ajratib turuvchi nuqtalarni aniqlashga va ularning munosabatlarini oydinlashtirishga harakat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурахмон Жомий, «Баҳористон». Т., Ёш гвардия, 1979, 75-бет
2. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. («Тазкират уш-шуаро»дан). 2.Бўрибой Аҳмедов таржимаси. Т., Адабиёт ва санъат, 1981, 190-бет.
3. Краткая литературная энциклопедия. Т.8, М., «Советская энциклопедия», 1975, с.339.
4. Saydullaeva, A. R. (2022). Gender Factors in Raising the Intellectual and Social Status of Women in Universities. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), 103-107.
5. Гегель. Сочинения. Том XIV, М., 1958, с. 204.
6. Роднянская И.В. Художественность КЛЭ., т.8, М., 1975, С. 338.
7. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/> Санъатнинг нафосатли моҳияти ва бадий ижод жараёни/item/12664-2021-06-03-11-09-13
8. Кант И. Критика способности суждения // Соч.: В 6 Т. М., 1969.Т. 5.С. 330.
9. Гегель Г.В.Ф. Работы разных лет: в 2-х Т. М., 1970. Т. 2. С. 212.
10. Назаров Қ. Адабиёт фалсафаси. Жаҳон адабиёти. 2016 йил, 7-сон. – Б.35-38.